

Gulchehra Izbullayeva

(Buxoro, O'zbekiston)
izbullayeva@mail.ru

Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” asari so‘fiylik ta’limotida muhim manba

Abstrakt

O'rta asr Sharq xalqlari ma'naviy merosi bo'lmish Mahmud Shabustariy (1289-1340) o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi bo'lib, uning “Gulshani roz” masnaviysi musulmon madaniyatining qimmatli xazinasi sanaladi. Asar kichik hajmli, mazmunan keng. Unda islom dini va XIII-XIV asrga tegishli so'fiylik ta'limoti qoidalari hamda asoslari belgilangan. Asar didaktik xarakterga ega bo'lib, o'git, pand-nasihatlardan, ya'ni Amir Husayniyning savollariga Mahmud Shabustariyning javobi shaklida qurilgan.

Shabustariyning “Gulshani roz” masnaviysi o'zining chuqur va boy mazmuni bilan tasavvuf adabiyotiga doir buyuk asarlar qatoriga turadi. Jumladan, “Gulshani roz”, Sanoiyning “Gulshani roz” (Haqiqat bog'i), Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Imom G'azzoliyning “Mukoshafat ul-qulub”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy”, Avhadiy Marog'iyning “Jomi Jam” kabi asarlari sirasiga kiradi. Ushbu asar haqida ma'lumotlar Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis un-nafois”, G'iyosiddin bin Humomiddin Xondamirning “Habib us-siyar”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlarida va boshqa o'rta asr mualliflari adabiy va tarixiy manbalarida uchraydi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ilm, orif, o'zlik, komil inson, ma'rifat, xususiylik, umumiylik.

Makhmood Shabustari's “Gulshani Roz” as a Main Source in the Sufi Teaching

Abstract

The masnavi “Gulshani roz” of Mahmood Shabustari (1289-1340), a spiritual heritage of the peoples of the Middle Ages of Orient, is considered to be a valuable treasure of Muslim culture. He is the famous representative of the theology and the Sheikh who had conquered the esteem of the Sufi teaching. His masnavi “Gulshani roz” is considered to

be the valuable treasure of the Muslim culture. The volume is small, but it has rich content. The principles and doctrines of the Islamic teaching and Sufi teaching of the 13-14th centuries are substantiated. The treatise having didactical character has been written in the language of moralizing, educational mode. The "Gulshani roz" is constructed upon the answer of Mahmood Shabustari to the questions of Amir Husayni.

Shabustari's masnavi "Gulshani roz" Masnavi stands high among the great works of Sufism with its deep and rich content and popularity. In particular, "Gulshani roz" is considered as the rare manuscripts such as Sanai's "Khadiqatul-haqiqah" ("Garden of truth"), Attar's "Mantiqut-tayr", Imam Ghazzali's "Mukashafatul-qulub", Jalaluddin Rumi's "Masnavii ma'navi", Awhadi Maraghi's "Jami jam" are among such rare works. Information about the masnavi is available in the works of "Nafakhatul-uns" of Jami, "Nasayimul-mukhabbat", "Majalis un-nafais" of Alishir Nava'i, "Khabib us-siyar" by Ghiyasuddin Khondamir, "Tazkiratush-shuara" by Davlatshakh Samarkandi and other medieval authors in literary and historical sources.

Key words: thought, education, tutoring, knowledge, wise man self-identity, perfect man, enlightenment, individuality, and generality.

Kirish

Bugungi kunda ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e'tibor kuchayib, ulug' ajdodlarimiz hayoti va ijodini o'rganish hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday buyuklardan biri Shayx Sa'diddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy Sharq tasavvuf ta'limotining mashhur ulamolaridan bo'lib, uning yozib qoldirgan ilmiy-adabiy merosi katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan qadrlanadi.

Shoir va faylasuf, islom ta'limotining yetuk namoyandasi Mahmud Shabustariy taxminan 1289-yilda Tabriz yaqinidagi Shabustar qishlog'ida tug'ilgan. Fors tilida ijod qilgan. O'z qarashlari bilan yaqin va o'rta Sharq hududlarida ijtimoiy-ma'rifiy fikrlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Mahmud Shabustariyning 3 ming baytni tashkil etuvchi safarlari bayoni va muloqotlari tasviridan iborat "Saodatnoma", "Risolai shohid" ("Shohid haqida risola"), "Mir'ot ul-mahaqqiqiyn" ("Oriflar ko'zgusi"), "Minhoj ul-obidin" ("Taqvodorlar yo'li"), "Gulshani roz" (Sirlar gulshani) nomli asarlari mavjud [Суфийская мудрость 1998, 72; Бертельс 1965, 23; Донишмандлар тухфаси 2009, 320]. Shabustariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi sifatida, o'zining xonaqohida yetarli darajada muridlari, tinglovchilariga ega bo'lgan.

“Gulshani roz” asari tadqiqi

Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” masnaviysi ko’pgina tillarga tarjima qilinib, olimlar tomonidan sharhlar bitilgan. Bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [Лоҳижий 1377; Лукашев 2009; Мохаммадибагмоллаи 2018]. Asar O’zbekiston Xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan o’zbek tiliga ham tarjima qilindi.

Shabustariyning “Gulshani roz” masnaviysi o’zining chuqur va boy mazmuni hamda mashhurligi bilan so’fiylikning buyuk asarlari qatoriga turadi. Jumladan, “Gulshani roz”, Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqa” (Haqiqat bog’i), Attorning “Mantiq ut-tayr”, Imom G’azzoliyning “Mukoshafat ul-qulub”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, Avhadiy Marog’iyning “Jomi Jam” kabi asarlari sirasiga kiradi. Shabustariyning “Gulshani roz” masnaviysi haqida ma’lumot Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis un-nafois”, G’iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlarida va boshqa o’rta asr mualliflari adabiy va tarixiy manbalarida uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy “Gulshani roz” haqida “Sir gulshani, demakdir. Mahmud Shabustariyning nazmda yozilgan tasavvufga oid asari (vaf. 1320 – 216.) [Навоий 1998, 340]” va yana “Gulshani roz”, ham zohir ahlining ranginu purkor masnaviylari va ham haqiqat ahlining shirinu fayzosor (lutf-karamli) so’zlarida andin ravonroq va purchoshniyroq (o’ta lazzatbaxsh) va sho’rangizroq (jazb etuvchi) va shavqomizroq (sho’xroq) nazm aytsa bo’lg’ayki, yo’qdur!” [Навоий 2015, 232], deb ma’lumot keltiradi.

Shabustariy haqida umumiy ma’lumotlar ensiklopediya, adabiyot, tarix darsliklari va majmualarda qisqa hajmda berilgan. Bugungi kunda “Gulshani roz” asaridan tasavvuf ta’limotining muhim tushunchalarini bilishda, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida unumli foydalanish mumkin.

“Gulshani roz”ning yaratilish tarixi

“Gulshani roz” – hajman kichik ammo keng mazmunli asar bo’lib, unda islom dini va XIII-XIV asrlarga doir so’fiylik ta’limoti g’oyalari aks etgan. Shabustariygacha so’fiylik ta’limotiga oid fikrlar Hujviri, Shahobiddin Suhravardiy, Imom Muhammad G’azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumi asarlarida keng yoritilgan. Shabustariyning mazkur asari ushbu mutafakkirlar ijodidan islom ta’limoti mazmuni mezon, me’yor nazariyasi tarzida tartiblanib, amaliy asoslari xalqchil tilda bayon etilgani bilan farqlanadi.

O’rta asrlarda didaktik asarlar asosan fors-tojik tilida, masnaviy, g’azal janrida ifodalangan. Shabustariyning “Gulshani roz” “masnaviysi rasmiy, dag’al ohangda yozilgan, lekin so’fiylik ta’limotini o’rganish uchun muhim manba sanaladi va bugungi kungacha o’z

qiymatini yo'qotgani yo'q" [Бертельс 1960, 162].

Shabustariy o'zini shoir deb bilmagan. U tasavvuf ilmining bilimdoni bo'lishi qatorida Ozarbayjonda taniqli murshid va so'fiylar yo'lboshchisi ham bo'lgan. Shabustariy buyuk notiq va so'fiylik ta'limotining mahoratli ma'ruzachisi sifatida suhbat metodidan foydalangan va bu uning kundalik mashg'ulotiga aylangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, u ta'lim-tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan "Gulshani roz" asarini yaratishga kirishgan.

Shabustariy "Gulshani roz"ning kirish qismida keltirib o'tishicha 33 yoshida Xurosonning o'sha davrdagi buyuk shayxi va so'fiy shoir Amir Husayn Hiraviy (1319-yilda vafot etgan)ning she'riy maktubiga javob tariqasida shavvol oyining hijriy 717-yil (1317-yil dekabr – 1318-yil yanvar)da o'z asarini yoza boshladi.

Amir Husayn suhravardiya tariqatining davomchisi va Ibn al Arabiy ta'limotining ishonchli vakili edi. Uning qo'ygan savollari tarbiyaviy mazmundagi so'fiylikning murakkab va chigal masalalarini o'z ichiga qamrab olgan. Amir Husayn ushbu masala yuzasidan yetarli darajada tasavvurga ega edi, lekin uning ma'lumotida faqat Xuroson so'fiylik maktabi g'oyalari aks etar edi, xolos. Shayx Ozarbayjon so'fiylik maktabiga xos qarashlarni bilish maqsadida o'z savollarini Ozarbayjon markazi bo'lgan Tabrizga yubordi. Chopar xonaqohga belgilangan vaqtda (1317-yil dekabr) yetib kelib, mashhur so'fiylar huzurida maktubni o'qib beradi. Shunda hamma ishtirokchilar e'tiborlarini Shayx Shabustariyga qaratadilar. Negaki ushbu fikrlarga munosabat bildirish salohiyatiga ega bo'lgan shayxning so'fiylik ta'limoti masalalarini qamrab olgan bir qancha ilmiy asarlari mavjud edi. Barchalari shayxdan Xuroson shayxining bergan savollariga javob berishini iltimos qilishadi.

Maktub she'riy shaklda tuzilgan bo'lib, shayx Ozarbayjonda qabul qilingan qoidaga muvofiq qo'yilgan savollarga she'riy shaklda javob berishi lozim edi. Shabustariy o'zining maslakdoshlaridan uzr so'rab, bu savollarga javob berish zaruratini ko'rmayotgani, uning asarlarida ushbu muammolar o'zyechimini topgani, Xuroson so'fiylari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javobni ushbu asarlardan topishlari mumkinligini aytib o'tadi. Boshqa jihatdan u nazm san'atidan bexabarligini, she'riy tarzda javob berolmasligini kamtarlik bilan izohlaydi. Biroq u baribir do'stlarining iltimosini bajarishga qaror qiladi va shu paytning o'zida har bir savolga monand tarzda javob yozib, manzumani tugatib, choparga tutqazadi.

Majlis ishtirokchilari Shabustariydan javoblarni ancha kengroq izohlab, bir alohida doston yaratishini so'rab, o'z istaklarini ma'lum qilishadi. Shu tarzda qisqa vaqt ichida "Gulshani roz" asari yaratiladi. Mahmud Shabustariy asarda aslida shoir emasligini ham ta'kidlab o'tadi:

Menga shoirligimdin or qayonda?

Kechar ming yil, vale Attor qayonda? [Шабустарий 2013, 16]

Men o'zimning shoirligimdan or qilib, uyalmayman. Biroq Farididdin Attor singari shoir ming yilda bir marotaba dunyoga keladi, deydi.

Tasavvuf ta'limotini bayon etgan "Gulshani roz", so'fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan ma'rifiy asardir. Ushbu asar tasavvuf ilmini nazm orqali tushuntirib beradigan darslik sifatida qaraladi va u savollarga javob, qoida, tamsil (analogiya) berish shaklida tuzilgan. Masnaviyini shoir an'anaga ko'ra "Kitobning ibtidosi"da Ollohga hamdu sano bilan "Berib jonlarga Ul fikrat (aql, idrok) sabog'in" deb boshlaydi, keyin Muhammad payg'ambarni "U peshrav (ildam, olg'a yuruvchi), unga payrovdur (ergashgan, bog'langan) ko'ngillar" deb madh etish bilan davom ettiradi. Avliyolarni bayon etib "Chu o'zlardin alar ogoh erurlar, ma'rifat ahlidin suhbat qururlar", deb ta'rif keltiradi.

"Kitobning yozilish sabablari" fasli 33-40 baytlarni qamrab oladi. Bu fasl so'fiylik ta'limotida kitob tuzilishi qonuni bilan belgilangan masnaviyning muhim bir qismi bo'lib, xabar beruvchi xarakterga ega. Aynan shu faslda keltirilgan ma'lumotlar orqali biz asar yaralishi tarixini bilib olamiz. Xurosonlik "buyuk zot", "mashhur", "ma'rifat va hunarda chashmai nur", "jahonning joni", "nurichashmasi", "imomi soliki", deb ta'rifi keltirilgan Sayyid Husayn va uning tomonidan nazmda "so'zi oz erdi-yu ma'nosi ulkan", tasavvuf ilmini qamrab olgan hamda 15 ta (ayrim manbalarda 17, 18 ta mazmun bir xil faqat savollar bo'laklarga ajratilgan) savollardan iborat bir maktub yuboriladi.

Amir Husayniy savollariga Shabustariyning javoblari

Qadimgi Sharq va G'arb faylasuflari "savolni to'g'ri tuzish unga javob berishdan mushkul" yoki "aniq tuzilgan savol javobning yarmi", kabi bilimni egallashning muhim metodlari suhbat yoki munozaraning asosi sanalgan savol va javob metodining nazariy asosini izohlab o'tganlar.

Shabustariyning tadrijiy javoblari "Amir Husayniy savollari" faslida ifodalangan savollarga tegishli. Quyida keltirilgan jadval asarning umumiy tuzilishini ko'rishga imkon beradi:

Amir Husayniy savollari	Mahmud Shabustariy javoblari
Birinchi ulki, jonimga tahayyur (hayrat), Ne ermiş, onikim derlar tafakkur? U qaydin kelgayu qaylarga ketgay, Izoh ber, ul qachon oxirga yetgay?	Qo'yib botilni, Haqqa yurmaging ul, Boqib juz' sori, Kullni ko'rmaging ul... Ko'ngilda bo'lsa gar paydo tasavvur, Uni yod aylamak, derlar, tazakkur. Xayolga tolsangu qo'zg'alsa fikrat, Uning nomin atarlar urfu ibrat. Tasavvur erdi ul bir ishga tadbir, Aqlga yondashib bo'ldi tafakkur... Tafakkur oxiri ermiş tahayyur...
Degil, qaysi ul sharti rohdur, Magar ul goh ibodat, goh gunohdur?	Sifoti Haqni o'ylash sharti rohdur, Fikrda zoti Haq ersa, gunohdur...
Kim ermişman? Menga mendin xabar qil, Nechun derlar: o'zing sori safar qil?	Sen ul ko'pliksanu birlikda kelding, Sen ul birlikdanu ko'plikda kelding...
Magar yo'lchi, musofir kim emishdir? O'shal insoni komil, kim emishdir?	Musofir ul erurkim, yo'l bosar zud (tez), Olovdek tozadir ul tark etib dud... Ul kelgan yo'lidan manzilma manzil Yurib ortga, bo'lur insoni komil...
Kim ul, vahdat siriga voqif ermiş, Kishi nelarni bilsa, orif ermiş?	Kishi vahdat siriga bo'ldi voqif, Haqiqat sori yursa, ersa tolib. Dili orif siri borliqni bilgay, Ochib ko'z, borlig'i mutlaqni ko'rgay...
Agar ma'rufi orif zot erur pok, Ne savdo, ulki tortar bir hovuch xok?	Shukur qil, bo'lma Haqqa noshukur sen, Ki Haqni nuri Haq birlan bilursen... O'shal kun loy qorib, tan etdilar baxsh, Ko'ngilga nuri iymon etdilar naqsh. O'qi bir karra, dilda ul bitik ne?.. Bilarsen shunda asli istaging ne...
Ne ma'no erdi ul nutqi Anal-haq, Magar safsata dermu ramzi mutlaq?	"Anal haq" kashfi asror erdi mutlaq, Ki haqdin o'zga kim derdi "Anal Haq?"... Agar Hallojga monand etsang o'zni, Degaysen xuddi Hallojdek bu so'zni...

Degaylar ne uchun mahluqni vosil, Anga sayru suluk ne yo'lda hosil?	Visoli Haq erur xalqdin judolik, O'shal begonalikdin – oshinolik. Chu imkon changini mumkin qoqar, bas, Qolar vojib, bo'lak bir narsa qolmas... O'shal mahluq agarda bo'lsa vosil, Uni mahluq demas hech mardi komil...
Magar mumkinu vojib bo'lsa jam, ne? Hidoyat (to'g'ri yo'l) qurbida ul ko'pu kam ne?	Chu borliq ochdi yuz bahri adamda, Yaqinlik ham, yiroqlik ham shu damda. Yaqin – borliq erurkim, boshida nur, Yiroq – undan yiroq tushgan adamdur...
Nechuk dengizki ul, so'z sohil ermish, Tubidin duru gavhar hosil ermish?	U borliq dengizi, so'z unga sohil, Sadaf so'z ersa, gavhar donadir dil. Uning har to'liqini ming durri shahvor, Sochar olamga aytib naqlu axbor...
U ne juz'dirki, Kuldin ortiq o'lgay, Kishi izlab, uni ne yo'lda ko'rgay?	Shu borliq juz'diru Kulldin ziyod ul, Agar asliga boqsang, undadir Kull...
Qadimu yangi ne bois judodir, Ki bu olam bo'libdur, ul Xudodir?	Ular payvast erurlar, ayru ermas, Qadimning aksidur ul yangi, mo'hdas. Hama Ul, o'zgasi monandi Anqo, Faqat bir ismi bor, yo'q jismi aslo...
Ne erdi kimsada so'zi iborat, Ki aylar ko'zu lablarga ishorat? Nechun ul yuz degay, zulfu xatu xol, Kishida bul maqomoti ersa, ah- vol?	Bu olam ichra har nekim ayondir, Chu aksi oftobi ul jahondir. Jahon chun zulfu xolu xattu qoshdir, Ular o'z o'rnida orasta, xushdir. Tajalliy goh jamoldir, goh jaloldir, Yuzu zulf bu jihatga bir misoldir...
Sharobu sham'u jonondin ne ma'no, Xarobotiy bo'lishdin ne tamanno?	Sharobu sham'u jonon ayni ma'no, Ki har suvratda etgay ul tajallo. Sharobu sham' erur ul zavqi irfon, Qara, pinhon emasdir yori jonon. Sharob - fonus, sham' - fonus aro nur, Va jonon - nuri arvoh shu'lasil ul...
Butu zunnoru tarsolik bu kuyda, Magar kufr ermasa, ne erdi unda?	O'shal but mazhari ishq erdi, vahdat, U zunnor boylamaklik - ahdi xizmat. Shu borliq birladir kufru din asli, Va tavhid ul sababdin - butparastlik...

Shabustariyning savollarga batafsil javob berganidan so'ng masnaviyini nima uchun “Gulshani roz” deb nomlanishi va undan

qanday naf bo'lishi haqida kichik xotima keltiradi:

*Ul gulshandin olib taru ufor boz,
Anga nom tanladim men "Gulshani roz".
Ochilmish necha gul, ko'ngil aro sir,
Ularni etmamish bir kimsa tasvir...* [Шабустарий 2013, 73].

Amir Husayniy tomonidan berilgan savollardan shuni anglash mumkinki, savollar ko'rinishidan sodda, ammo mazmunan juda murakkab tuzilgan bo'lib tasavvuf ilmini atroflicha qamrab oladi. Binobarin javoblar ham so'fiyona mazmunga muvofiq bo'lishi lozim. Buni bilgan Mahmud Shabustariy har bir javobni shayx Amir Husayn talabiga mos ravishda juda aniq, isbotlangan bo'lishi bilan birga asar qiymatini ham belgilab beruvchi darajada bitadi.

Asarning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati juda chuqur, mohiyatan aniq va ilmiy yoritilgan bo'lib, misollar asosida ham izoh beriladi. Muallifning maqsadi diniy dunyoqarashni ta'limiy ruh bilan boyitish va tarbiyalashga qaratilgan.

Birinchi javobda: "Haqni tanish (mavjudlik mohiyatini bilish) uchun, tafakkur qilish kerak. Buning uchun, mantiq va qonunni bilish kerak. Kishi Haqqa yetishishi, e'tiborli, u har boqishda nuri borliqni ko'radi. Ko'ngil, ma'rifat bilan oshno bo'ldi, toza va sof bo'ladi va har narsada u nuri Xudoni ko'radi. Ko'ngilga mudom yaxshi fikrni joylash natijasida Haq nuri dilga tushganini ko'radi" [Шабустарий 2013, 23], – deydi Mahmud Shabustariy.

Muallif aql darajalarini fuzuliy (o'jar, gapdon), falsafiy, hulul (daxldor)iy, kalom (notiq)iy deb e'tirof etadi va aql Haq oldiga bechora kabidir, quyosh soriga boqqan ko'z kabidir, – deb o'xshatadi. Haqni ta'rif etar ekan: "Xudo sonu sababdin xoli, har xil izhoru gapdin balanddir" [Шабустарий 2013, 25], – deydi.

Muallif Haqni anglash yo'lidagi g'oyalarni davom ettirib "adam (yo'qlik) borliqqa mutlaq oyinadir, unda Haq aksi tobishi ko'rarsen" [Шабустарий 2013, 31], – deydi. Ushbu tobish insonning ko'ngli ekanligini izohlab, agar ko'ksingda ko'ngil bir nuqta bo'lsa, u ikki olamga makon. O'sha bir nuqtada har ikki olam mujassam, u gohida Iblis, gohida Odam [Шабустарий 2013, 35], – deydi. Ya'ni inson ko'nglida yaxshilik va yomonlik mavjud, u hamisha yaxshilik ustunligiga erishish uchun ko'ngilni tarbiyalab borishi lozimligi anglashiladi.

Muallif olam zanjirdan iboratligini tasvirlab, ushbu olam "bir nuqtada zamonlar kun, oy va yillardan iborat. O'sha bir nuqta doim aylanishda, uning o'zi markazda-yu ham u doira. Uning bir zarrasini qo'zg'atsang, butun olam vayron bo'ladi. Ular halqada hamisha aylanib tutqundadirlar", deydi.

Shabustariy har bir javobga kuchli tamsil va qoida keltiradi.

Kuching borida oxirat va dunyoni bil, unga amal qil, kuching ketganda bilmakdin ne hosil? Jahon sensan, vale sen muncha ojiz. Erta-yu kech Haqni anglash yo'lida sira tinma, – deydi. Bu dunyoda “gado bir jazbada sulton bo'lur, xo'p, bo'lur bir zarbada tog'ing samon cho'p”, – deydi.

An'anaga ko'ra qoida keltirib, falakiyot ilmi, quyosh sistemasining tuzilishi, tunu kunning aylanishi, sakkiz falak, mag'rib va mashriq, o'n ikki burj, quyosh va oyning yigirma sakkiz kunda uchrashuvi, uchrashuvidan keyin yangi hilolning chiqishini tasvirlaydi.

Muallif fikrini davom ettirar ekan, tafakkurli bo'lsang agar, mardi komil, hech bir ma'no oldingda yechilmay qolmas, deydi va yana Qur'onda kelgan har xabarni o'qigin, senga bilmaganlaringdan sharh beradi, – deydi. Tamsil:

*Falaklar aylanur, deysan, tinimsiz,
Kulolning charxi yanglig' kecha-kunduz.
Magar mohir kulol ul lahza-lahza,
Yasar gilmoyadin bir yangi ko'za.
Zamon ichra makonda narsakim bor,
Shu usta ilkidin chiqmish boyakbor..
Hama chun yo'lga chiqmishlar piyoda,
Gahi yuksakda, goh pastu qiyoda...* [Шабустарий 2013, 27].

Muallif, “o'qi olam kitobin, ochilur sir”, – deb, Qur'oni karimga murojaat qilib, “odam bolasini mukammal qilib yaratdik” oyatidan foydalanadi. Ushbu oyatda insonning ulug'lanishi va farishtalar unga sajda qilishiga ishora etilgan. Asarda inson haqidagi ushbu qarashdan unumli foydalaniladi. Inson jism va ruhdan iboratligi, inson jismida to'rt unsur – suv, olov, havo va tuproq xususiyatlari jamlangani qayd etiladi. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa borliq, tabiatga, ya'ni maxluqot, hayvonlarga borib taqaladi, – deydi.

Asarda to'rt unsur: otash, suv, shamol, tuproqdan uchta avlod namoyon bo'ldi: jamod (ma'dan), nabot (o'simlik), hayvon. Keyin nafs Odam keldi, u bois ikki olam paydo bo'ldi, deb tasvirlanadi.

Asarning yana keyingi mazmunida nabiy, valiy, avliyo va Odam nasli xalifa bo'ldi, – deyiladi. Inson olamda yaratilganlarning eng mukammali va oxiri. Insonni ta'rif etar ekan: “zuhur-u, qudrat-u, ilm-u irodat bari sen birla, ey sohib saodat”, – deydi.

Asarda inson mohiyatni anglasa, “menu senga hojat yo'q”, – deb ta'riflanadi va Haq qudrati insonni junbushga soladi va u iroda sohibi bo'ladi, yoshligida olam e'zoz bo'ladi, olam vahimasini anglaydi. Agar g'azab, shahvat, hirs kabi past sifatlariga ega bo'lsa-yu “nuri olami jon yetib o'zini anglasa, tavba-tazarru aylab, asl inson

bo'ladi" [Шабустарий 2013, 24], – deyiladi.

Tamsilda nabiyini oftobga, valiyni moh, oyga o'xshatadi. Nabiylik bemisl poklik. Valiy nabiyning hamdami, – deyiladi.

Kishi insoni komildir muqarrar,

Agar sulton bo'lib ul qullik aylar [Шабустарий 2013, 33].

Bundan tashqari, muallif shariat va tariqat ahli orasidagi munozaralarni anglagan tasavvuf nazariyotchisi sifatida bu ikki tomonni kelishtirish va shariat va tariqatni muvofiqlashtirish ustida ham o'zining fikrlarini bayon etib o'tadi.

Komil inson shariatni o'ziga ko'ylak kabi kiyadi, tariqatni yaktak kabi kiyadi, haqiqat maqomiga erishadi. U o'zida kufr va iymonni jamlaydi, go'zal axloqli bo'ladi, ilmu zuhd (poklanish, o'zdan voz kechish), taqvoda ma'rifatli bo'ladi.

Tamsil:

Shariat po'st erur, mag'zi haqiqat,

Ul ikki o'rtada turgay tariqat.

Haqiqatga kishi chun yetdimi, bas,

Yetilgay mag'zi, po'stga hojat ermas... deydi. Bu tasavvufga berilgan lo'nda ta'rif bo'lib, shariat zohiru haqiqat botin, tariqat esa shu ikkisini bog'lovchi ko'prikdir, deb ushbu jumla bilan yakunlaydi:

Chizarkan doira solik mukammal,

Tutashgay nuqtada oxir va avval... [Шабустарий 2013, 34].

Muallif, agar orif ko'nglida borliqni anglashga shubha, gumon, monelik bo'lsa, u haqiqatga yetolmaydi. Gumondan, monelikdan ko'ngilga ro'shnoqlik tushmaydi. Jahonda monelik to'rtta bo'ladi. Ulardan qutulishning ham to'rtta yo'li bor. Birinchisi tan va to'nning kirligi, ikkinchi ko'ngilning kirligi, uchinchi past, yomon axloq. Bundan odam hayvonga aylanadi. Va to'rtinchisi mudom pok tutmaging sir, shunda ul Haq manzilga nozil bo'lasan, deydi.

Tan-u joning erdi bo'ylakim roz,

Tan-u joningni pok tut, ayla pardo.

Ilohiy naqsh-u andin nusxa ham sen,

O'zingdin izla, har ne istagaysen... [Шабустарий 2013, 36].

Muallif orifni ma'rifatli kishi, ma'rifatga erishgan kishi, deb ta'rif etadi. Yettinchi javobda oriflarni junbushga solgan "Anal haq" haqida bahs etadi. Mansur Halloj tomonidan "Anal haq" – "men Haqman" iborasini aytgani uchun uni gunohkor hisoblab, qatl etadilar. U bu iborani Haq ilmini anglab, birlikdan ogohlik deb ta'riflaydi.

Agar Hallojga monand etsang o'zni,

Degaysen xuddi Hallojdek bu so'zni...

*Janobi haqda yo'qdir ikkilik, bas,
Va menlik, bizligu senlikda bo'lmas...*

Qoida:

*Ki haqdin o'zga borliq, mavjudod yo'q,
Magar ul Haq degaysen yo Anal Haq.
Xayol, vahmingni borliqdin judo qil,
Haqiqatga o'zingni oshno qil...* [Шабустарий 2013, 39].

Keyingi javobda ham Haq amri bilan hamma narsa bug', so'ng bulut, yomg'ir va nam, gul, nabotot, jonivor va insoni komil bo'lishi izohlanadi. Asarda odamiylik mazmuni haqida shunday ta'rif keltiriladi:

*Birovkim yetti yuz ming yilcha toat
Etib, bo'yniga ildi tavqi la'nat.
Gunoh aylab birov nur ichra qoldi,
Tazarru etdi, mo'min nomin oldi...* [Шабустарий 2013, 40].

Asarda inson kamoloti ilm bilan bezanishi, ilm egallash, ilmdin ikki olam farog'atiga yetishish, inson kichik bo'lsa, ulug'lik kasb etishi, botiniy (ichki, ko'ngil) ilmning zohiriy (tashqi, yuzaki) ilmdan afzalligi tasvirlanadi.

"Ilmning agar molu dunyoga mayli bo'lsa u faqat suvratdan iboratdir, unda ma'no bo'lmaydi, ta'ma bor joyda ilm bo'ladimi, ilm yo'lida ko'ngilni har lahza pokiza tut", deyiladi.

Qoida:

*Chiroyli, yaxshi xulq asli adolat,
Keyin hikmat kelur, iffat, shijoat.
Hakimning rost erur so'zi, a'moli,
Magar to'rt narsadin kelgay kamoli.
Dilu jondin hikmatni har on,
Na makkor ermish ul, na go'lu nodon.
Kesar shahvat kuchin iffatla doim,
Turar shu ahdiyu shahdida qoim.
Yigitdir, o'zni past tutmas, baland ham,
Anga begona qo'rquv, xotiri jam.
Adolat zotiga fazli azaldir,
Birovga zulmi yo'q, xulqi go'zaldir.
Tutar ul o'rta yo'lni xulq aro, hay,
Na ketgay ilgari, na ortga qolgay...* [Шабустарий 2013, 49].

Ushbu misol chiroyli, yaxshi xulqni adolat ramzi sifatida tasvirlab, insonda adolat bo'lsa, unda hikmat, iffat, shijoat ham namoyon bo'ladi, deydi Shabustariy. U hakim, dono va oriflarning so'zlarini ulug'lab, inson to'rt narsadan kamol topadi, deya ta'kidlaydi. Bularning birinchisi, iffati shahvatdan g'olib inson; ikkinchisi, o'zini

past ham, baland ham tutmaydigan mard kishi, Unga qo'rquv begona, uning xotiri jam; uchinchisi, adolatli, go'zal fazilatli inson, bunday inson zulmdan uzoq, go'zal xulqlidir; to'rtinchisi, xalqdan ilgarilab ham ketmaydigan, ortga ham qolmaydigan har ishda o'rta yo'lni tutadigan inson.

Asarda insonning kasb egallashi va har kasbning ustida qiladigan tinimsiz mehnati uning mahorat egasi bo'lishiga sababchi bo'ladi, degan fikr keltiriladi. Asarda mehnat ortidan har tomonlama mahorat kasb etgan inson, hunar ortidan davlatga yetsa, kamtarlikni ham kasb etishi lozimligi ta'kidlanadi.

Asarda ko'ngil ahli faoliyatida tafsir (sharh), tashbih (o'xshatish), tadbiri ma'no (ma'noni idrok etish) zarurligi aytiladi va ko'ngil ahliga ta'rif keltirilib:

Magar oyinai dil yuvsa yuzni,

Ne sud, oyinada ul ko'rsa o'zni [Шабустарий 2013, 52], deydi.

Asarda ko'ngil ahli yana xarobotiy so'zi bilan ham muqoyasa qilinadi va "Xarobotiy bo'lish o'zdin judolik [12, 53]", deb ta'riflanadi.

Xarobotiy – so'zining lug'aviy ma'nosi vayrona sharobxona bo'lsa-da, ammo muallif tasavvuf ahli qarashlari bilan ifodalab beradi. Inson jismining xarob bo'lishi qanoat, faqirlik yo'lga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz yomon xulq odatlardan qutulib, o'zini kamtarinlik, xokisorlikka solishdir, deydi muallif.

So'nggi javobda: "Ey oqil inson, – deydi Mahmud Shabustariy, – yaxshilab o'yla. Tavhid (yagonalik) yuzasidan butning yolg'onligi yo'q. Bilgilki, uning yaratuvchisi ham qodir Xudodir. Neki Haqdan yaralsa, u haqiqatdir... Agar musulmonlar but nimaligini anglaganlarida edi, din – bu butparastlik ekanligini bilgan bo'lurdilar... Axir, Alloh xohish etmasa, kim ham butning yuziga chiroy baxsh etar va kim butparast bo'la olardi? [Шабустарий 2013, 52]".

Mard kishi vafo (ko'ngil) ahli bilan bir qatorda ilm egallab saodatga erishadi. Ushbu ma'naviy holat, go'dakka o'xshaydi. Ilm ota bo'lsa, ona amal emish. Ushbu ilmga erishgan takabburlikdan yiroq turadi.

Muallif, inson o'zini Haqqa oshno etmay, jamiyatda o'zini ko'p namoyon qilsa, xalqa kulgi bo'ladi, deydi va quyidagi baytda bunday insonlar ustidan hajv qiladi:

Jamoat deydilar, ul bori tashvish,

Eshakni rahbar etmishlar, ajab ish.

Bilimsizlarga joy tegdi balanddin,

Ki abgor bo'ldi xalq ahvoli andin [Шабустарий 2013, 53].

Asarda insonning insoniyligi, uning ilmi va amali asosida baholanishi ulug'lanadi va "bobosi yaxshi deb shayxi zamon ul, eshakni shayx etdi...", deb, urug' aymoqchilik, xushomadgo'ylik,

laganbardorlik, yaltoqlik kabi jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etadigan illatlarni qoralaydi. "Ushbu illatlardan so'ng kelur ko'ngilga zinhor, ne bo'lgay, boylasam belga zunnor", – deydi. Ya'ni, Zunnor (arab. - chilvir) - charmdan yasalgan maxsus kamar, belbog'. Arab xalifaligi davrida musulmon davlati hududida yashab, boshqa dinga etiqod qiluvchilar - zimmiy (asosan yahudiy va xristian)lar musulmon emasligining belgisi sifatida zunnorni majburan taqishgan. Bu holat shariatda qonunlashtirilgan. Muallif bu yerda jamiyatda johillar tomonidan yo'l qo'yilayotgan bunday illatlar insonni ilm va amaldan chiqaradi, bunday odamlarni qoralab ilmsizlar, betakalluf, behayo, jaholatdan or ham qilmaydiganlar, deydi.

Muallif fikrini mustahkamlab:

Demasmen: sen nasab, mansab talab qil,

Degaymen: Haqni bil, tarki nasab qil...

Agar bo'lmoq tilarsen bandayi xos,

Shior etgil hamisha sidqi ixlos...

Ichingda toza tut iymonni har on,

Musulmon bo'l, musulmon bo'l, musulmon.

Ko'ngil ko'zi birla boq har zamone,

Ki dilda qolmasin shubha, gumone [Шабустарий 2013, 60], deydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumikinki, Shayx Sa'diddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi bo'lib, uning "Gulshani roz" - kichik hajmli ammo keng mazmunli asar bo'lib, unda islom dini ta'limoti va XIII-XIV asrga tegishli so'fiylik ta'limoti prinsiplari hamda asoslari belgilangan.

Shabustariygacha so'fiylik ta'limotini Hujviri, Shahobiddin Suhravardiy, Imom Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlar o'zlarining ta'limotlarida va falsafiy fikrlarida bayon etib o'tganlar. Shabustariyda islom ta'limoti mazmuni mezon, me'yor nazariyasi tarzida tartiblanib, amaliy asosi xalqchil tilda bayon etilgan.

"Gulshani roz" so'fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan irfoniy asar. Ushbu asarga tasavvufni ilmiy izohlash orqali tushuntirib beradigan darslik sifatida qaraladi va u savollarga javob, qoida, tamsil (analogiya) berish shaklida tuzilgan.

Asarning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati juda chuqur, mohiyatan aniq ilmiy dalillar bilan yoritilgan bo'lib, misollar asosida ham izoh beriladi. Muallifning maqsadi diniy dunyoqarashni ta'limiy jihatdan boyitish va tarbiyalashga qaratilgan.

Asarda insonning insoniyligi ilmi va amali asosida baholanishi

Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" asari so'fiylik ta'limotida muhim manba
ulug'lanadi va jamiyatda johillar tomonidan yo'l qo'yilayotgan
illatlar insonni ilm va amaldan chiqaradi, bunday johil odamlarni
qoralab, omiylar, ilmsizlar, betakalluf, behayo, jaholatdan or ham
qilmaydiganlar, deya ta'riflanadi.

"Gulshani roz"dan ta'lim jarayonida islom va so'fiylik
tushunchalarining nazariy mazmunini to'ldirishda va ma'rifiy
dunyoqarashni shakllantirishda unumli foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

- Бертельс, Е. Э. 1960. *История персидско-таджикской литературы. Избранные труды.* Москва: Наука.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Суфизм и суфийская литература. Избранные труды.* Москва: Наука.
- Донишмандлар тухфаси. Рубоийлар. 2009. Таржимон, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Э. Очилов. Тошкент: O'zbekiston.
- Мохаммадибагмоллаи, Моҳаммадказем Карим. 2018. *Маҳмуд Шабистари у место его поэмы «Гулшан-и роз» в истории персидско-таджикской литературы.* Дисс... кандидата филологических наук. Душанбе.
- Навоий, Алишер. 1998. *Мукаммал асарлар тўплами.* 20 жилдлик. 14-жилд. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 2015. *Насойим ул-муҳаббат.* О.Давлатов насрий баёни. Тошкент: O'zbekiston.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф.* Тошкент: Movarounnahr – O'zbekiston.
- Лоҳижий, Муҳаммади Гелоний. 1377. *Шарҳи "Гулшани роз" ("Мафотех-ул-эъжоз").* Техрон: Маҳорат.
- Лукашев, А. А. 2009. *Философские взгляды Махмуда Шабистари (XIV в.): на материале поэмы "Цветник тайны":* дисс... кандидата философских наук. Москва.
- Лукашев, А. А. 2009. *Философские взгляды Махмуда Шабистари (XIV в.).* Автореф. дис. на соиск. уч. степ. кандид. философ. наук. Москва.
- Суфийская мудрость.* 1998. Сост. В. В. Лавский. Мн.: ИП «Лотаць».
- Шабустарий, Шайх Маҳмуд. 2013. *Гулшани роз.* Сўз боши муаллифи Э.Очилов. Тошкент: Tamaddun.
- <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

References

- Bertel's, E. E. 1960. *Istorija persidsko-tadzhikskoj literatury. Izbrannye trudy.* Moskva: Nauka.
- Bertel's, E. E. 1965. *Sufizm i sufijskaja literatura. Izbrannye trudy.* Moskva: Nauka.
- Donishmandlar tuhfasi. Ruboijlar. 2009. Tarzhimon, nashrga tajjorlovchi, suzboshi va izohlar muallifi E. Ochilov. Toshkent: O'zbekiston.
- Mohammadibagmollai Mohammadkazem Karim. 2018. *Mahmud Shabistari i mesto ego pojemy «Gulshan-i roz» v istorii persidsko-tadzhikskoj literatury.* Diss... kandidata filologicheskikh nauk. Dushanbe.

- Navoi, Alisher. 1998. *Mukammal asarlar tuplami*. 20 zhildlik. 14-zhild. Toshkent.
- Navoi, Alisher. 2015. *Nasojim ul-muhabbat*. O.Davlatov nasrij bajoni. Toshkent: O'zbekiston.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston.
- Lohizhij, Muhammadi Gelonij. 1377. *Sharhi "Gulshani roz" ("Mafoteh-ul-jezhoz")*. Tehron: Mahorat.
- Lukashev, A. A. 2009. *Filosofskie vzgljady Mahmuda Shabistari (XIV v.): na materiale pojemy "Cvetnik tajny"*: diss... kandidata filosofskih nauk. Moskva.
- Lukashev, A. A. 2009. *Filosofskie vzgljady Mahmuda Shabistari (XIV v.)*. Avtoref. dis. na soisk. uch. step. kandid. filosof. nauk. Moskva.
- Sufijskaja mudrost'*. 1998. Sost. V. V. Lavskij. Mn.: IP «Lotac'».
- Shabustarij, Shajh Mahmud. 2013. *Gulshani roz*. Suz boshi muallifi E.Ochilov. Toshkent: Tamaddun.
- <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

Muallif haqida: *Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna* – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

Iqtibos uchun: Izbullayeva, G. V. 2020. "Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" asari so'fiylik ta'limotida asosiy manba sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 60–74.

About the author: *Gulchehra V. Izbullayeva* – Doctor of Philosophy (PhD) Pedagogical Science, Associate Professor, Bukhara State University.

For citation: Izbullayeva, G. V. 2020. "Makhmood Shabustari's "Gulshani Roz" as a Main Source in the Sufi Teaching". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 60–74.